

*Andijon davlat chet tillari instituti*

*Ingliz tili va adabiyoti 112-guruh talabasi*

*O'ktamova Sug'diyona*

*Ilmiy rahbar: Xamidov Nodirbek*

**Annotatsiya:** Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarda ekologik tafakkurni shakllantirish bugungi kunda hayotiy zaruratga aylangan. Ekologik tafakkur nafaqat tabiatni tushunish, balki uni asrab-avaylashga bo'lgan mas'uliyatni ham o'z ichiga oladi. O'quvchilarda ekologik ongni rivojlantirish, ularni ekologik muammolarni hal qilishda faol ishtirok etishga undash, tabiiy resurslarni samarali ishlatish va atrof-muhitni himoya qilishni o'rgatish orqali barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish mumkin. Bu jarayon nafaqat ilmiy bilish, balki axloqiy va ijtimoiy jihatlarni ham qamrab oladi, natijada yangi avlodda ekologik mas'uliyatli qarashlar va munosabatlar shakllanadi.

**Kalit so'zlar:** Ekologik tafakkur, ta'lim-tarbiya jarayoni, ekologik ong, atrof-muhitni himoya qilish, tabiiy resurslar, barqaror rivojlanish, ekologik mas'uliyat, yashil iqtisodiyot, ekologik muammolar, o'quvchilarni tarbiyalash.

**Annotation:** In the educational process, developing ecological thinking in students has become a vital necessity today. Ecological thinking not only involves understanding nature but also embracing the responsibility to protect it. By fostering ecological awareness in students, encouraging their active participation in solving ecological problems, teaching them to use natural resources efficiently, and protecting the environment, sustainable development goals can be achieved. This process includes not only scientific knowledge but also ethical and social aspects, resulting in the formation of ecological responsibility and attitudes in the new generation.

**Keywords:** Ecological thinking, educational process, ecological

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

*awareness, environmental protection, natural resources, sustainable development, ecological responsibility, green economy, ecological problems, student education.*

**Аннотация:** В образовательном процессе формирование экологического мышления у учеников становится неотъемлемой необходимостью в современном мире. Экологическое мышление включает не только понимание природы, но и ответственность за её защиту. Развивая экологическое сознание у школьников, побуждая их активно участвовать в решении экологических проблем, обучая рациональному использованию природных ресурсов и охране окружающей среды, можно достичь целей устойчивого развития. Этот процесс охватывает не только научные знания, но и этические и социальные аспекты, что способствует формированию экологической ответственности и отношений у нового поколения.

**Ключевые слова:** Экологическое мышление, образовательный процесс, экологическое сознание, охрана окружающей среды, природные ресурсы, устойчивое развитие, экологическая ответственность, зеленая экономика, экологические проблемы, воспитание учеников.

### **KIRISH**

O'quvchi yoshlarda ekologik madaniyatini shakllantirish bugungi kunning muhim masalalaridan hisoblanadi. Ekologik madaniyatning asosini, shubhasiz, ekologik ta'lim - tarbiya tashkil etadi. Bugungi ekologik holat ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarini ya'ni maktabgacha ta'lim muassasalaridan tortib oily ta'lim bosqichlarini ham qamrab oladi. Chunki, muayyan aniq maqsadlarga yo'naltirilgan ekologik ta'lim - tarbiya natijasida o'quvchi yoshlarning ekologik madaniyatini bilimlarini oshirish, ularda tabiatga nisbatan ongli munosabatda bo'lish malakalarini tarkib toptirish, ekologik madaniyatni tizimli va izchillikda olib borish dolzarb masalalardan biri sifatida nazarda tutish lozim.

Kichik mакtab yoshidagi o'quvchilarda ekolgik madaniyatni rshakllantirish vositasi sifatida maydonga chiquvchi yaratuvchilik nimanidir o'zgartirishga, yangilik yaratishga, fikrlashga majbur qiluvchi ehtiyoj hisoblanib, u o'quvchilarda

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

mustaqil ta'lif olish, ya'ni mustaqil o'rganish, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. O'zini - o'zi anglash va o'zligini ifodalashga bo'lgan ehtiyoj o'quvchilarни o'z faoliyatida ma'lum bir ijobjiy natijalarga erishish, o'quvchilar jamoasida obro' - e'tibor qozonish, atrof muhit ta'siri va uni inson salomatligidagi roli borasida harakatga keltiruvchi vosita bo'lib, o'quvchilarda o'zini - o'zi hurmat qilish, o'zligini anglash, o'zini - o'zi boshqarish, o'zini - o'zi tarbiyalash, tozalikka rioya qilish, gigiyenik talablarni amalda bajarish kabi ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish jarayonida muhim ahamiyat kasb etuvchi vositalardan biri muvaffaqiyatga bo'lgan ehtiyoj bo'lib, bu ma'lum bir vazifani mas'uliyat bilan bajarish orqali ko'zlangan natijalarga erishishga xizmat qiluvchi, o'quvchilarda mas'uliyat hissini shakllantirish orqali ijodiy faoliyatga etaklovchi ehtiyoj hisoblanadi.

Demak, o'quvchilardagi mavjud va ma'lum bir maqsadda shakllantirilgan ehtiyojlar boshlabg'ich sinflardayoq ma'naviy ma'rifiy ishlar jarayonini ilmiy asosda tashkil etish hamda yuqori natijalarga erishish, o'quvchilarda ekologik madaniyatni rivojlantirish vositalari sifatida xizmat qilishi mumkin.

### **MATERIAL VA METODLAR.**

Tafakkurni rivojlantirish vositalari haqida fikr yuritar ekanmiz, tafakkur qanday va qaysi vositalar va asoslarga ko'ra shakllanadi hamda rivojlanadi. Uning shakllanishiga va rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning o'ziga xos xususiyatlari nimadan iborat? degan savollarga javob topish va undan o'quvchilarda mustaqillik madaniyatni shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiluvchi ta'lif-tarbiya va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarida foydalanish muhim ahamiyatga ega, chunki, yuqorida aytib o'tganimizdek, o'quvchilarda tafakkurning shakllanish va rivojlanish jarayoni nimanidir bilib olishga va o'rganishga yo'naltirilgan aqliy -tahliliy xatti -harakatlar jarayoni bo'lib, mazkur jarayonda o'quvchilar o'zlari uchun yangilik bo'lgan qaysidir hodisa va voqealarni vujudga kelish sabablarini o'rganadi va tahlil qiladi.

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

Mazkur yangilik avvaldan mavjud bo'lishi, ya'ni sub'ektiv bo'lishi mumkin. Lekin bu o'quvchilar uchun yangilik hisoblanadi, chunki, o'quvchilar mazkur yangilikning kelib chiqish sabablari, xususiyatlari, ahamiyatini o'rganish va tahlil qilish asosida qaytadan kashf etadi. Mazkur jarayonni tafakkurning shakllanish va rivojlanish jarayoni deb aytishimiz mumkin. Demak, tafakkurning shakllanish va rivojlanishi jarayonida tasavvur, tushuncha va dunyoqarash asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Mazkur fikrlarga asoslanib aytishimiz mumkinki, o'quvchilarga ekologik tafakkur uning mazmun - mohiyati, ahamiyati va zaruriyati yuzasidan tushunchalar berish, ularda mazkur soha bo'yicha tasavvurni shakllantirish, kelajakka ishonch uyg'otish, dunyoqarashini kengaytirish ularda ekologik madaniyatni shakllantirish va rivojlantirishning asosiy vositalari sifatida xizmat qiladi.

Jumladan, ekologik madaniyatni shakllantirish jarayoni bu - tabiiy resurslardan oqilana foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik tizim barqarorligini ta'minlash, aholi hayoti va salomatligini saqlash, iqlimning o'zgarishi, suv resurslarning kamayib ketishi, atmosferaning ifloslanishi, tuproq degradatsiyasi, cho'llashuv jarayonlari bioxilma-xillik va o'rmonzorlarning qisqarishi, tabiiy boyliklarning sifat va miqdorini oshirish va tabiatni muhofaza qilish bugungi kunning ustuvor masalalaridan biri hisoblanadi.

Ekologik madaniyat - bu tabiat haqidagi bilim, ong, idrok, savodxonlik, intellektual salohiyat va uni amalda qo'llay bilish faoliyati, atrof-muhitga nisbatan faoliyatning yuksak ko'rsatkichi, ongli va ma'suliyatli yondashuvdir.

Ekologik bilim va ekologik madaniyatning tayanch fazilatlari:

- axloqiy-ekologik onglilik shaxsning muhim madaniyatlilik sifati bo'lib, uning atrof - muhitni hissiy bilish jarayoni atrof - muhitdagi obyektlar va hodisalarini sezishi, idrok etishi, tasavvur qilishi, ziyraklik va teranlik asosida tabiat muhofazasi bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishi lozimligini nazarda tutadi;

- ekologik ma'suliyatlilik shaxsda munosabat va ma'sullikni tarbiyalashda namoyon bo'ladi, bunday munosabat shaxsning tabiatga ko'rsatgan salbiy ta'siri oqibatlarini anglash va bunday ta'sirni bartaraf etish istagi natijasidagina

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

shakllanadi;

- ekologik irodaviylik shaxsning o'zi va o'zgalarning atrof - muhitdagi hatti-harakatlarini baholashi va nazorat qilishi shaxsdagi qat'iyatlilik, tejamkorlik, ozodalik va pokizalik bilan bog'liq jarayon hisoblanadi. Shaxsning ekologik madaniyatini shakllantirishda ekologik qadriyatlar alohida ahamiyatga ega, ularga tabiatni asrab-avaylashga intilish, tashabbuskorlik, izchillik, mehnatsevarlik va ongli faollik kabilar kiradi. Xususan, bugungi ekologik muammolar, ya'ni global, mintaqaviy va lokal ekologik muammolarni bilsin, er, suv, energetik muammolar, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, bioxilma-xillikni saqlash, cho'llanish jarayoni, atmosfera havosining ifloslanishi kabi tushunchalar bilan chambarchas bo'gлиq. Ekologik ma'naviyatli shaxsni tarbiyalash bog'cha, umumta'lim maktablari, lisey, kasb hunar ta'limi, oliygohlarda mutaxassislar tomonidan olib borilishi maqsadga muvofiq.

Aholining boshqa tabaqalarida esa O'zbekiston ekologik partiyasi va boshqa ko'ngillilar, tashkilotlar tomonidan targ'ibot ishlari yo'lga qo'yilishi mumkin. Ekologik ta'limning nazariy asosi - atrof muhit muhofazasiga oid ta'limni bog'cha, maktab, oliy o'quv yurtlarida ma'lum o'quv reja va dasturlari asosida olib borish hamda malakali mutaxassislar tayyorlashdan iborat. Yig'ilgan tajribalar umumlashtirilib ma'lim pedagogik shaklga keltirilib o'quv dasturi darsliklari tuzilishi lozim.

### **NATIJALAR**

Oliy va o'rta maxsus ta'limga ega bo'lgan tarbiyachi, ekologik metodist, ekologik pedagog, ekologik instruktor, injener-ekolog, ekolog-agroximik, ekolog-texnolog kabi mutaxassislar tayyorlanishi lozim. Ekologik ma'naviyatli shaxs tabiatdagi obyekt va hodisalarni qiyoslay olishi, ongli tushunchalar hosil qilishi, tabiatga munosabatni oldindan rejalahtirishi, atrof-muhitdagi o'zgarishlarga nisbatan ziyrak va tabiatga qiziquvchan bo'lishi, tabiat go'zalligini his eta olishi, tabiatni muhofaza qilishda qat'iyatli bo'lishi, tabiatga zarar etkazmaslik, boshlangan ishni oxirigacha etkazishi, atrof-muhit muhofazasida tashabbus ko'rsatishi, tabiatni asrash uchun yangi g'oyalar, ekologik bilimlarni targ'ib qilishi,

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

ijtimoiy foydali mehnatga havas hissini shakllantirishi, mehnat malakalarini egallashi, o'z-o'zini nazorat qila olishi, vatanparvarlik, ona tabiatga mehr-muhabbat hissiyotiga ega bo'lishi, o'zi yashab turgan uy, mahalla, shahar tabiatini sevishi, undan g'ururlanishi, uni ardoqlashi lozimdir.

Bugungi kunda insoniyatni xavf ostida qoldirayotgan hodisalardan biri ekologik vaziyat hisoblanib, jamiyatning katta tashvish uyg'otmoqda. Insonning tabiiy boyliklardan haddan tashqari tartibsiz foydalanishi oqibatida, o'rmonlar siyraklashib, o'simlik va hayvonlar turlari kamayishi, foydali qazilma boyliklari tugab borayotganligi, shuningdek, suv havzalari va atmosfera havosining ifloslanishi natijasida sayyoramizning qiyofasi o'zgarib bormoqda. Bularning barcha insonlarning tabiiy boyliklardan oqilona foydalanmaslikni oqibati hisoblanadi. Shuning uchun ham ekologik talim-tarbiya berishni maktabgacha yosh davridan boshlash lozim. Ekologik bilim - bu tirik tabiatning tuzilishi, rivojlanishi, o'zgarishi, er yuzidagi tirik jonzotlarning holati, ularning birbirlariva atrof-muhit o'rtasida bo'lib turadigan munosabatlarni, tabiiy boyliklarning son va sifatini, hajmini, xillarini hamda ularni saqlash va tejamkorlik bilan foydalanish yo'llarini o'zlashtirishdan iboratdir.

Kichik mакtab yoshidagi o'quvchilarda ekolgik ta'lim - tarbiya berish ularni ilk marotaba tabiatga qadam qo'ygan vaqtidan boshlab, butun hayoti davomida tabiatdan ongli, oqilona ravishda foydalanishga, xalqimizning tabiatga hurmat va e'tibor bil an qaraydigan urf-odatlarini tarbiyalash, tabiiy boyliklarni ko'paytirish va ulardan to'g'ri foydalanish, bog'-urog'lar, gulzorlar tashkil qilishga, daraxtlarni, o'simlik va hayvonlarni asrashga, ularga ozor bermaslikka o'rgatish, shuningdek, o'quvchilarining qalbida tabiatga, uni asrashga nisbatan yaxshi xislatlar uyg'otishdan iboratdir.

Ekologik tarbiyaning bosh maqsadi maktabgacha yoshdagi bolalarda atrof-muhit va uning muammolari haqida ongli munosabatni hamda ular bo'yicha optimal echimlar toppish to'g'risidagi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat. Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun bir qator vazifalarni hal qilishga to'g'ri keladi.

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

1. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ekolgik ta'lism - tarbiya berishda ularning yashab turgan joyi (tabiat) va boyliklarini tejab-tergashga, ularni ongli ravishda muhofaza qilishga o'rgatish.

2. Ekologik madaniyatni shakllantirish jarayoni, eng avvalo, oiladan boshlanmog'i lozim.

O'quvchi yoshlarga ekolgik ta'lism - tarbiya berish, xalqimizning o'ziga xos milliy tarbiyasidan, ya'ni ota-onalar tarbiyasidan boshlanadi. Milliy tarbiyamizda suvni isrof qilmaslik bilan birga, er, havo, tuproq ham muqaddas hisoblanadi. O'quvchilarga ekologik ta'lism berishda har bir bolaga 1 ta gul tuvakni parvarishlash topshirig'ini berish ham eng samarali usullardandir. Bunda parvarishlash usullarini o'rgatib, ularni shu gulni qanday parvarish qilyotganini nazorat qilib boriladi. Natijada o'quvchilarda avvalambor mehr-shafqat tuyg'usi, tabiatga muhabbat shakllanadi. O'quvchilar gullarining qurib qolmasligi uchun qayg'uradilar va parvarish qilishadi.

Demak, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ekolgik madaniyatni shakllantirish orqali ularning tabiatga bo'lgan mehrini shakllantirish va kelajakda tabiiy fanlarni o'zlashtirishi uchun poydevor yaratiladi. O'quvchilarga ekologik ta'lism - tarbiya berishda zamonaviy usullardan foydalanish yaxshi samara beradi. Bu orqali o'quvchilarning o'zlashtirishini yanada oshirish va qiziqarli, yangicha ta'lism jarayonini tashkil etishdan iborat bo'ladi.

Binobarin, axloq ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, uning mohiyati, shaxs xatti-harakatlari, yurish-turishi, turmush tarzi, hayot kechirish tamoyillari, qoidalari, shuningdek, ijtimoiy munosabatlar mazmunini ifodalaydi. Shu bois, axloq ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat ma'naviy-ruhiy hayotida o'ziga xos muhim ahamiyatga ega. Muayyan millat qiyofasi, uning kishilik taraqqiyotidagi o'rni belgilanayotgan jarayonda mazkur tushuncha asosiy mezonlardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Axloq (arabcha xulq-atvor demakdir) - ijtimoiy ong shakllaridan biri, ijtimoiy tartib-qoida bo'lib, bu tartib-qoida ijtimoy hayotning barcha sohalarida kishilarning xatti-harakatini tartibga solish vazifasini bajaradi. Axloq omma

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

faoliyatini tartibga solishning boshqa shakllari (o'quv, ishlab chiqarish, xalq an'analari) da o'z talablarining asoslanishi, amalga oshirilishi va omma fikri asosida tartibga solinishi bilan farq qiladi. Axloq talablari barchaga taalluqli, biroq hech kimning ko'rsatmasi, hech qanday maxsus buyruq asosida bajarilmaydigan, ixtiyoriy amalga oshiriladigan burch shakliga kiradi. Axloq talablarining bajarilishi faqat ma'nnaviy ta'sir ko'rsatish shakllari doirasida yuz beradi.

O'quvchilarda ma'nnaviy-axloqiy sifatlarning qaror topishi tarixiy-obyektiv sharoitda shaxs tomonidan jamiyat taraqqiyoti, insonlarning o'zaro hamkorlik, aloqa doiralarining kengayishi takomillashuviga ko'rsatiladigan ta'sirning ijobiliy, mo'tadil holatda bo'lishini ta'minlashda ko'rindi. Ma'nnaviy-axloqiy sifatlarning qaror topishi quyidagi umumiy mazmun asosida ro'y beradi:

- o'quvchining m a'nnaviy-axloqiylik darajasi ijtimoiy munosabatlar jarayonida, uning jamiyat, atrof-muhit va tabiatga bo'lgan yondashuvida namoyon bo'ladi;
- o'quvchining ma'nnaviy-axloqiylik darajasi jamiyatning ijtimoiy-ma'nnaviy taraqqiyoti darajasiga bog'liq;
- o'quvchilarning ma'nnaviy-axloqiy kamoloti obyektiv va subyektiv shart-sharoitlarning o'zaro uyg'unlashuvi asosida tashkil etiladigan uzlucksiz, tizimli ta'lim -tarbiyaning yo'lga qo'yilishi natijasida vujudga keladi;
- o'quvchining ma'nnaviy-axloqiy kamoloti ijtimoiy munosabatlarning yo'lga qo'yilishida ijobiliy natijalarga olib keladi.mumkin.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Avezov Sh. Maktabda ekologik tarbiya-Toshkent: O'qituvchi, 1992.-62 b.
2. Beranova P.U. Qoraqalpoq oilalarida bolalarning ekologik madaniyatini
3. Ismatov I.Sh. O'quvchilarda atrof-muhitga ma'suliyatli munosabatni shakllantirish (anorganik kimyo misolida): p.f.n. diss....avtoref. - Toshkent, 2006.
- 
4. Jumanova F.U. Kasb-hunar kolleji o'quvchilarida ekologik madaniyatni

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

shakllantirish (geografiya ta'limi misolida): ped.fan.nom. diss.... avtoref. Toshkent, 2010.-22 b.

5. Norbo'tayev X.B. Boshlang'ich ta'limda ekologik xafvsizlik madaniyatini takomillashtirish. //Муаллим хем узлуксиз билимлендириу. Илмий-методикальщ журнал №2 ISSN 2181-7138 Некис-2022. -Б. 93-97. Mualliflik ishtiroki 100%.